

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

ORTIQOV FARMONBOY RAXMON O'G'LI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 3-bosqich talabasi

E-mail: farmonboyortiqov1@gmail.com

Telefon raqami: +998997714505

SHARIPOV TULQIN SAIDAXMEDOVICH

"Real iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbekiston

E-mail: sharipovtulqin942@gmail.com

Telefon raqami: +99898 271 35 36

ARTICLE INFO.

Abstract:

Keywords:

*elektron tijorat, 3D ko'rinish,
axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari, iqtisodiyot
tarmoqlari, reklama, gadgetlar.*

Ushbu maqolada O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish to'g'risida muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmon qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, jumladan, "Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu qonun va farmoyishlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida qilinayotgan chora-tadbirlar keng yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish. Jahonda raqamlashtirish jarayoni kechmoqda. Bu termin iqtisodiyotga ham kirib kelgan. Barcha sohalar zamonaviy raqamlashtirishga o'tib boryapti. Ba'zi tarmoqlar allaqachon axborot texnologiyalarining kuchli ta'siriga uchragan bo'lsa, boshqalari bu yo'lning boshida turibdi. O'zbekistondagi raqamli iqtisodiyot rivoji esa oxirgi yillarda sezilarli tarzda jadallahdi. Ayniqsa, uning asosiy qismi hisoblangan elektron tijorat faol rivojlanish yo'lida harakatlanyapti.

Hozir onlayn tijorat har qanday tarmoq vakillari uchun mijoz topishning eng qulay va oson usuli

hisoblanadi. Internet do'kon, onlayn savdo kabi tushunchalar turmushimizda anchayin ommalashib ulgurdi. Bir paytlar "o'ta zamonaviylik" belgisi bo'lgan bu kabi savdolar bugun aholi uchun qulay xaridlar, tadbirkorlar uchun esa biznesini rivojlantiruvchi manbalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishishga imkon bermoqda.

O'tgan davrda yurtimizda elektron tijoratni rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2022 yil 29 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan konferensiyada mazkur Qonunning ijro holati, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so'z bordi.

Ta'kidlanganidek, ushbu hujjat bilan elektron tijorat sohasidagi davlat siyosati, soha subyektlarining huquq va majuriyatlar, elektron tijoratda shartnomalar tuzish tartibi, sohadagi hisob-kitoblar hamda iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir normalar belgilandi.

Tadbirda ishtirok etganlar mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida erishilgan ijobiy ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tishdi. Jumladan, O'zbekistonda elektron tijoratning chakana savdo hajmida bir yil davomida sezilarli o'sish qayd etilgan. 2022 yilda elektron tijorat savdo hajmi 2021 yilga nisbatan deyarli 2 barobar oshib, chakana savdo hajmining 4 foizdan (10886.8 mlrd. so'm) ortiqroq ulushini tashkil etgan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi.

Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to'siq bo'layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan:

Birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur'atlardagi o'zgarishlariga mos kelmaydi va o'z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta'minlamaydi;

Ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to'liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to'siqlari saqlanib qolmoqda;

Uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo'lga qo'yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to'xtab turishiga olib kelmoqda;

To'rtinchidan, mahalliy to'lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo'qligi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to'liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta'sir qilmoqda;

Beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat budgetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;

Oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag‘batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog‘i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalg qilishni cheklamoqda.

Elektron tijorat ko‘pgina qulayliklarga ega bo‘lsada, biroq zamonaviy texnologiyalar asrida bir qator rivojlanishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Electron tijoratning rivojlanishi bevosita internet tarmoqlarining kengaytirilishi hamda foydalanuvchilar uchun tez va sifatli, shu bilan bir qatorda hamyonbop bo‘lishi bilan bog‘liq. Ko‘pgina Yevropa davlatlarida internet tezligi anchayin samarali ishlasada, Sharq hamda Afrika davlatlarining ayrim hududlarida to’laqonli bunday deb bo“lmaydi. Buning uchun aloqa-telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish, chekkaroq hududlarga ham sifatli aloqa tizimlari, antennalarini o‘rnatish, yangi internet tarmoqlarini yaratish va ommaga taqdim etish (bugungi kunda eng yangi versiyasi 5G bo‘lib, lekin bu yer yuzi bo‘yicha hali keng tarqalmagan, aksariyat aholi 4G, hattoki 3G va H+ dan foydalanib kelmoqda), shu bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarni qo’llab-quvvatlaydigan aloqa vositalari-telefon, planshet kabi gadjetlarning zamonaviy rusumlarini yaratish zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirishning yana bir samarali usullaridan biri bu hech shubhasiz yaxshi reklamadir. Xaridorlarning talab hamda takliflarini o“rgangan holda mahsulotlar hajmini oshirish yoki kamaytirish, ularga o‘zgarishlar va qo“shimchalar kiritish har tomonlama samara berib, xaridorni eng zarur narsalar bilan ta’minlaydi hamda mahsulotlarning aylanma harakati tezlashishiga sabab bo‘ladi. Yaxshi reklama esa xaridorning e’tiborini jalg qiladi, mahsulotning foydali va umumiyligi tomonlari haqida to’laqonli yoritib beradi. Afsuski, reklamaning eski ko‘rinishlari - turli afishadagi rasmlar, internet tarmoqlarida tez-tez aylanib turadigan bir necha daqiqali videoroliklar o‘z samarasini kerakligicha beryapti deb o‘ylamayman. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodda ham o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodda, ayniqla tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo’llanishi yotadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda reklamani ham zamonaviy texnologiyalashtirish zarurligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mahsulotning 3D ko‘rinishini taqdim etish qobiliyatiga ega android qurilmalarini yaratish elektron tijoratning istiqbollarini ta’minlaydi.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni tadbirkorlik faoliyatining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rish mumkin. Soha mutaxassislarining fikricha, respublikada elektron tijoratni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar va resurslar mavjud: aholining kompyuter savodxonligining o‘sishi, past trafik narxlari bilan yuqori sifatli internetning butun mamlakat bo‘ylab tarqalayotganligi va boshqalar. Axborot texnologiyalarining global miqyosida rivojlanishi iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlar uchun dastakka aylandi. Bu jarayonlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri Internetning iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishidir. So‘nggi paytlarda Internet orqali tijorat aloqalari doirasi sezilarli darajada kengaydi, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: – internet orqali tovarlarni sotish va sotib olish; – elektron tarmoqlardan foydalanish orqali pul mablag‘larini o‘tkazish; – elektron shaklda axborot savdosi va boshqalar. Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotda juda yuqori temp bilan rivojlanayotgan sohalardan biridir.

Xulosa va taklif. Davlatimiz rahbari va yuqori tashkilot organlarining bu sohaning muhimligini anglagan holda olib borayotgan islohotlari O‘zbekistonda ham elektron tijoratning rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Elektron tijorat mamlakatimiz rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga

olgan holda, bu soha beradigan to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Elektron tijorat yuksak darajada barcha sohalarda rivojlanmagan. Bizga ma’lumki dunyoda juda ko’plab malakali hodimlar ishsiz qolmoqda. Bunga sabab ular hohlashganidek ish topa olmaganliklaridir. Mamlakatga esa malakali hodimlar kerak. Shu maqsadda Elektron tijorat sohasida hodimlarga munosib va qulay ish topib beruvchi dastur yaratilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi. Odamlar ish qidirib kunlarini behudaga sarflamaslik uchun online Ish topib beruvchi dastur. Ushbu dasturda hodimlar o’z ma’lumotlarini kiritishadi va ularga bir qancha ishlar ro’yxati kelib chiqadi. Va ular o’zlariga munosib kasbni tanlab suhbatdan o’tishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.05.2018 yildagi PQ-3724-son, ELEKTRON TIJORATNI JADAL RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Pulatov M. E. On the Need And Ways of Converting Some of the Components of Goodwill Into Identifiable Intangible Assets //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – T. 8.
3. Pulatov M. E. Conceptual Issues Of Accounting Of Intellectual Capital //American Journal of Economics and Business Management. – 2019. – T. 2. – №. 1. – C. 117-123.
4. Pulatov M. System Analysis Of Intellectual Property Indicators Of Financial Statements //European Journal of Business and Economics. – 2012. – T. 6.
5. Pulatov M. INTELLECTUAL PROPERTY PARAMETERS OF FINANCIAL REPORTING. – 2016.
6. EGAMBERDIEVICH P. M., NODIROVNA M. S., OGLI J. A. E. FEATURES AND PROBLEMS OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE SERVICE SECTOR IN A MARKET ECONOMY //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 609-613.
7. Шарипов Т. С. Важность организации ресторанных услуг в управлении гостиничным бизнесом //Молодой учёный. – 2020.
8. Sharipov T. Овқатланиш хизматлари бозорида рақобатбардошлик масалалари //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2017. – №. 1. – C. 136-142.
9. Saidakhmedovich S. T., Bekhruz U. PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN THE REAL SECTOR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 10. – C. 624-628.
10. Sidorov V. A. et al. INNOVATSIYA IQTISODIYOTI: TEKNOLOGIK YUTUQ MUAMMOSI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 8-15.
11. Saidakhmedovich, S. T. ., Nodirovna, M. S. ., & Khaydarjanovna, S. D. . (2022). Ways to Improve the Performance of Service Enterprises in Rural Areas. Middle European Scientific Bulletin, 24, 21-24.
12. Sharifov S. S., Astanaqulov S. Improving the welfare and employment of the population //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 31-41.
13. Saidahadovich S. S. The ways of Efficient use of Resources in Consumer Services //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 22-29.

14. Artikov Z. S. In Competitions Conductrd by Belt Wrestling Use of Fast Technical Methods Efficiency //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 253-255.
15. Saifiddinovich A. Z., Shokhrukhovich U. F. Social Protection of the Unemployed and their Labor Increasing Competitiveness in the Market //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 61-63.
16. Артиков З. С. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 4 (152). – С. 59-65.
17. JournalNX-AMultidisciplinary Peer Reviewed Journal Published <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=7497936228629876027&btnI=1&hl=ru>
18. <https://lex.uz/docs/-6122858>
19. https://mitc.uz/uz/pages/about_ministry
20. <https://m.kun.uz/news/2021/03/21/globallashuv-kuchayishining-ozbekiston-iqtisodiyotiga-tasiri-qanday-boladi-ekspert-fikri>